



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

28 FEVRAL  
№25

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
7-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-7**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-7**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 67 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>1. Amirjonova Charos Qobiljon qizi, Nasirova Saodat Abdullayevna</b> ХИТОЙ ТИЛИ О'QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL USULLARINING АҲАМИЙАТИ .....	8
<b>2. Imomaliyeva Mo'tabarxon Uluo'bek qizi</b> INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIGA BILIM, KO'NIKMA, MA'LAKA VA КОМПЕТЕНСИЯЛАРИГА QO'YLADIGAN TALABALAR .....	10
<b>3. Sultanova Fotima Khanafiyayevna</b> APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS.....	12
<b>4. Qurbanova Shoira Ro'zmatovna, Atamurotov Jamshidbek Baxtiyor o'g'li</b> PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	14
<b>5. Tamikayeva Dilafro'z Maxmudovna</b> ALISHER NAVOIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA FRAZELOGIZMLARNING QO'LLANILISHI .....	16
<b>6. Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna</b> SAMARQAND SHAHRI SHEVALARIDA BOLA TILIGA OID SO'ZLAR XUSUSIDA .....	19
<b>7. Zakirova Gulchexraxon Abdusattarovna</b> BADIY MATN TUZHISHDA METAFORADAN FOYDALANISH .....	21
<b>8. Абдураҳмонов Абдураҳмон</b> АЛИШЕР НАВОЙЙИНГ "ТАРИХИ АНБИЁ ВА ҲУКАМО" АСАРИ ҚУРЪОНӢ ҚИССАЛАР МАНБАИ СИФАТИДА .....	22
<b>9. Матниязова Таисия Павловна</b> ГРАММАТИЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИ УСТНОМ ПЕРЕВОДЕ .....	24
<b>10. Шагиева Зульфия Ильгизовна</b> О ВЛИЯНИИ ДИАЛЕКТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ РУССКОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ .....	26
<b>11. Abdullayeva Nasiba Murodjonovna</b> USING ERROR CORRECTION AT EFL CLASSES .....	28
<b>12. Bahriiddinova Nilufar Nasriddin qizi</b> EDUCATION IS AN ORNAMENT IN PROSPERITY AND REFUGE IN ADVERSITY .....	30
<b>13. Djumayeva Ruxsora Abdug'afforovna</b> ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	31
<b>14. Искандарова Феруза</b> ОСОБЕННОСТИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ .....	33
<b>15. Karimova Shahloza, Gulyora Ismoilova</b> NUTQDA IDIOMALARING QO'LLANILISHI .....	35
<b>16. Meliqulova Madina Xikmatovna</b> STRUCTURAL SEMANTIC ANALYSIS OF THE LEXICAL FIELD OF THE WORD DENOTING POSITIVE FEELING .....	37
<b>17. Rajabova Bahora Yusuf qizi</b> CORRECTING STUDENT ERROR IN WRITING .....	39
<b>18. Rajabova Shahlo</b> ADABIYOT DARSLARIDA DRAMATIK ASARLARNI TAHLIL QILISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING АҲАМИЙАТИ .....	41

## **МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT**

---

<b>19. Raximova Gulora Shonazarovna</b>	
INGLIZ TILIDA O'QISH MAHORATINING MASHQLARI VA UNING MAKTAB DARSLIKLARIDA QO'LLANILISHI.....	43
<b>20. Ro'zimova Yulduz</b>	
FRANSUZ TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOSLIGI .....	44
<b>21. Xolnazarova Vazira Bozor qizi</b>	
CONTEXTUAL SEMANTIC FEATURES OF MODALITY IN DIFFERENT TYPES OF DISCOURSE .....	46
<b>22. Xusainova Dilrabo Ibragimjanovna, Raxmatova Umida Mirzaolimovna</b>	
INGLIZ TILI FANINI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH.....	48
<b>23. Джумаева Зилола Асадовна</b>	
ПРОБЛЕМЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В АСПЕКТЕ СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЫ .....	49
<b>24. Ҳамидова Ниора</b>	
ЎЗБЕК ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ НОМЛАРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ АҲАМИЯТИ.....	53
<b>25. Ilyasova (Saydaliyeva) Nilufar Shuxrat qizi</b>	
AMIN AFG'ONPURNING HAYOTI VA IJODI .....	54
<b>26. Mahmudov Anvar Muhammadkomilovich</b>	
THE RELEVANCE OF NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE STUDY OF ENGLISH VOCABULARY .....	56
<b>27. Sabirova Guli Abdullayevna</b>	
ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.....	58
<b>28. Sharipova Muhabbat Toshpulatovna</b>	
INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY USULLAR VA METODLAR.....	60
<b>29. Азимова Гулноз Бобокуловна, Бабакулов Исмаил Туркманович</b>	
ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ .....	62
<b>30. Очилова Зебинисо Мухамматовна</b>	
ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ .....	64



## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### XITOY TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL USULLARINING AHAMIYATI

Amirjonova Charos Qobiljon qizi  
O'zDJTU lingvistika (xitoy tili) magistri  
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Nasirova Saodat Abdullayevna

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda xalqaro aloqalar tillarini o'qitishning jahon amaliyotida xitoy tilini madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida, xalqlarni, mamlakatlar, qit'alarni o'zaro boyitish vositasi sifatida, milliy va umumbashariy madaniyat yutuqlari bilan tanishish usuli, o'z mamlakatining fuqarolari va jahon hamjamiyati a'zolari tomonidan o'zini anglash usuli sifatida bilish vazifalari qo'yilmoqda.

**Kalit so'zlar.** rolli o'yinlar, zig-zag interfaol usuli, karusel o'yini, interfaol metod, innovatsion texnologiya.

Mazkur maqola doirasida biz talabalarga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini ko'rib chiqamiz. Ta'lim berish bu – o'qituvchi va o'quvchi-talabalar ishtirokidagi jamoadir. O'qitish reja asosida o'qitish tizimi hamda mahorati, qolaversa o'quvchi talabaning ma'rifatining oshishi bilan belgilanadi. Shunday ekan, hozirgi kunda xitoy tili darslarida har bir ta'lim beruvchi o'zining zamonaviy texnologik yondashuviga ega bo'lishi kerak. Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar asosida til o'rganish eng qulay va zamonaviy uslub hisoblanadi. Yevropa va chet davlatlarda allaqachon innovatsion ta'limdan keng foydalanilgan holda dars o'tiladi.

Bugungi kunda bizning mamlakatimiz oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida —Aqliy hujum, Rolli o'yinlar, BBB jadvali, Karusel o'yini, Bahsmunozara, Zig-zag, Venna diagrammasi, Bumerang, Sinkveyn, Delfi shu kabi bir qator interfaol metodlardan keng foydalanilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda har tomonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosda o'quvchilarning ilmiy-dunyoviy qarashlarini rivojlantirish, ularning barkamol shaxs sifatida erkin fikr yurita olishligini, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashdan iborat.<sup>1</sup>

Xitoy tilini o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlar:

Xitoy tilini o'qitish amaliyotida qo'llaniladigan ba'zi texnologiyalarni ajratib ko'rsatish muhim, deb hisoblayman, ular turli xil manbalarda turli mualliflar tomonidan aniqlangan:

I. 1) dizayn texnologiyalari; 2) axborot texnologiyalari; 3) til portfellari texnologiyasi; 4) modulli blok texnologiyalari.

II. 1) kommunikativ yo'naltirilgan texnologiyalar; 2) o'rnatilgan texnologiyalar; 3) dizayn texnologiyalari.

III. 1) talabalarga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi; 2) kommunikativ o'zaro o'rganish texnologiyasi; 3) kompyuter texnologiyalari; 4) multimedia texnologiyasi.

Interfaol usullar ichida o'ziga xos bir qancha ijobjiy jihatlari bilan ajralib turadigan — rolli o'yinlar interfaol usuli XX asrning 70-yillarida chet tillarini o'rgatishda qo'llanila boshladi. Bu esa o'qitishda turli usullardan foydalanish o'z samarasini bera boshladi ya'ni ko'z bilan ko'rish, quloq bilan eshitish xotirani yanada mustahkamlab, o'quv jarayoniga nisbatan qiziqish va faollikni oshirdi. Rolli o'yinlar - ishbilarmonlik yoki rolli(vaziyatl) o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda, matnli material o'rniغا o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan

<sup>1</sup> Ziyamuhamedov.J.T. Xitoy tili o'qitish metodikasi. T.: TDSHI. 2010, B. 21.



hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Rolli o‘yinlar metodi shundan iboratki, o‘quvchi, o‘zi uchun notanish bo‘lgan, turli xil harakterli inson obraziga qalban kirishib ketadi. O‘zi uchun notanish bo‘lgan, turli xil harakterdagi rollarni o‘ynashlari asosida ularning dunyoqarashlari, fikr-mulohazalari, nimalar haqida o‘ylaydilar, ularning nozik tabiatini haqida o‘quvchilar keng tushunchaga ega bo‘ladilar. O‘yinda asosan o‘quvchilarga tugallanmagan muammoli sahna ko‘rinishi (vaziyat) rollari beriladi. O‘quvchilar ushbu muammoli rollarni mustaqil ravishda oxiriga yetkazib, rol o‘ynashlari shart. Innovatsion, interfaol metodga “Karousel” o‘yinini ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

“Karousel” o‘yini. Ko‘plab innovatsion texnologiyalar singari, karusel ham qarzga olingan psixologik tayyorgarlik. Bolalar odatda bunday ishdan zavqlanishadi. Ikki uzuk hosil bo‘ladi: ichki va tashqi. Ichki halqa - tashqi aylanaga qaragan holda harakatsiz turgan talabalar, tashqi halqa - har 30 sekundda aylana bo‘ylab harakatlanadigan talabalar. Shunday qilib, ular bir necha daqiqada bir nechta mavzularni gapira olishadi va suhbatdoshni ularning to‘o‘rligiga ishontirishga harakat qilishadi. Axloqiy xarakterdagi dialoglar, tanishish mavzusi, millat, jamoat joyida suhbat va boshqalar mukammal tarzda ishlab chiqilgan. Bundan tashqari “Rolli o‘yin” texnologiyasi ham keng tarqalgan texnologiyalardan biridir. Mazkur o‘yinlar interfaol usuli xitoy tili darslarida ikki tomonlama ham o‘qituvchi ham o‘quvchiga teng foyda olib keladi. O‘qitish mazmuni yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.

“Zig-zag” interfaol usuli bilan dars o‘tish ham grammatikani mustahkamlash, ham mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoldidan ham

habardor bo‘lish imkonini yaratadi, eng muhimi bilishdan tashqari o‘quvchi talaba o‘zi fikr yuritib, boshqalarga yetkazib berish qobiliyatini, so‘z boyligini oshirib, nutqini ravon qilishga yordam beradi.<sup>1</sup>

Demak, interfaol usullardan foydalanib yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda q o‘llash mashg‘ ulotlarida hamda o‘quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi.

Nafaqat xitoy tilini balki, boshqa chet tillarini o‘rganishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini ochish, saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. o‘quvchilarga grammatic xodisalarni o‘rgatish jarayonida quyidagi informatsion texnologiyalardan foydalanishni lozim topdik: kompyuter texnologiyasi (internet tarmogi), interaktiv metodlar, ochiq munozara (disput), ekskursiya, auksion, matbuot konferensiyasi, konkurs, dumaloq stol, orzu-niyat, she’riyat turlari, chet til o‘rgatish proyekt metodi va boshqalar. Interaktiv metodlar qo‘llanganda, o‘quvchining o‘zi mustaqil holda erkin fikr yuritadi, o‘qituvchi bilan hamkor sifatida ishlaydi. Xitoy tili darslarida o‘quvchilarining grammatic ko‘nikmalarini takomillashtirishda internet texnologiyalari axborot olish va muloqot kilishning eng zamonaviy shakllaridan biridir.

Maxsus kuzatishlarim va o‘tkazilgan izlanmalarim asosida quyidagi xulosalarga keldim: o‘yin-topshiriqlardan foydalanish chettilo‘qitishning amaliy, tarbiyaviy, umumta’limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi; o‘quvchilarning xorijiy tilda fikr bayon etish(gapirish)ga nisbatan psixologik salbiy kechinmalarini bartaraf etishga imkon beradi, o‘quvchilarga mustaqil fikrlashni o‘rgatadi, nutq malakalarini egallahshni o‘zlashtiradi, maqsadga erishish, g‘alaba qozonishga undaydi, tilni kommunikativ metodika asosida o‘rganishga imkon beradi, barcha o‘quvchilarni darsga jalb qilishga, qiziqishlarini yanada orttirishga, dars samaradorligini ko‘tarishga salmoqli hissa qo‘sadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyamuhamedov.J.T. Xitoy tili o‘qitish metodikasi.- T.: TDSHI, 2010, 21-bet.
2. 温晓虹。汉语作为第二语言的习得与教学。北京大学出版社，2012年, 34页。

<sup>1</sup> — 温晓虹。汉语作为第二语言的习得与教学。北京大学出版社，2012年, 34页。



## INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIGA BILIM, KO'NIKMA, MA'LAKA VA KOMPETENSIYALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.

**Imomaliyeva Mo'tabarxon Uluo'bek qizi**

Toshkent Shahar Yunusobod tumani 70-sonli  
umumiyo o'rta ta'lim maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi  
Telefon: +998 99 829 67 67

**Annotatsiya:** Berilgan maqolada ingliz tili o'qituvchilariga bilim, ko'nikma, ma'laka va kompetensiyalari qo'yiladigan talablar haqida to'liq ma'lumot berishga qisqacha harakat qilingan, ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmadan respublikamizning barcha Ingliz tili fani o'qituvchilariga foydalanish tafsiya e'tiladi.

**Kalit so'zlar:** A1, A2, B1, B2, C1, C2.

2017 – 2021-yillarda O'zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ilm-fan, ta'lim-tarbiya tizimini, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar quyidagilardan iboratdir;

– ta'limni rivojlantirish bo'yicha innovatsion-strategik natijaviylikka asoslangan pedagogik ishlarni rejalashtira olish;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'o'risidagi" qarori asosida o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o'rgatish va shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish xamda buning negizida, ularning jahon sivilizasiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lama foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotlarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bosh maqsadlardan biri qilib qo'yilganligi.

Chet tillarni o'rganish, o'rgatish, baholash bo'yicha Umumyevropa tavsiyalari (CEFR) va uning daraja talablari.

Birinchi daraja – tilni qo'llay olish:

– A1-o'ziga tanish bo'lgan so'z birikmalari atrofida muloqot qila olish, asosan so'zlashuv va eshitish qobiliyatining boshlano'ich darajasini bilish;

– A2-asosan ishda, o'qishda, bo'sh vaqtlarida va turli suhbatlarda oddiy tilda aytiladigan xabarlarning asosiy mazmunini tushunish.

Ikkinci daraja - tilni erkin kasbiy muloqotda xam qo'llay olish:

– B1- asosan ishda o'qishda va turli suhbatlarda adabiy tilda aytilgan har xil mavzudagi xabarlarning asosiy mazmunini tushunish. Tili o'rganilayotgan mamlakatda sayohatga borganda turizmga oid vaziyatlardagi mavzular asosida suhbatlasha olish;

– B2-mavhum va aniq mavzudagi matnlarning umumiyo mazmunini tushuna olish, o'z mutaxassisligi sohasiga oid ilmiy munozaralarni tushuna olish.

Uchinchi daraja - tilni ona tili darajasida bilish va qo'llay olish:

– C1- turli mavzulardagi yirik, murakkab matnlarni tushuna olish va ulardagi masalalarning tub mohiyatini ocha olish, so'z va iborani tanlashda qiyalmasdan tez va ravon gapira olish;

– C2-har qanday o'qigan yoki eshitgan habarlarini hech qanday qiyinchiliklarsiz tushuna olish, o'z fikrini ravon aniq ifodalay olish.

Ta'lim tizimida barcha bosqichlarda chet tillarni uzlusiz o'rganish tashkil qilinadi, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirishda, hamda o'quv-uslubiy materiallardan foydalangan holda (teleko'rsatuv, radio eshittirish, e'lonlar, yangiliklar va hokazo) tinglab tushunish, xorijiy tilda turli janrdagi audio va video matnlarni eshitib, asosiy ma'nosini tushuna olish.

Xorijiy tillarni o'rgatish jarayonini tashkil etish muomala vositasi sifatida tilning barcha aspektlarini kompleks (yalpi) muvofiqlashtirish tamoyillaridan kelib chiqqan holda olib boriladi. Tinglovchilar bu bosqichda ingliz tilining turli xususiyatlarini chuqurroq, detallashtirilgan tarzda o'rganishga kirishadilar. Ular bu davrga kelib lingvistik turkum fanlarini o'rgana boshlab, o'qituvchilik faoliyatining nazariy va amaliy tomonlari bilan yaqindan tanishadilar. Bu bosqichda ayni zamonda nutq malakalarini takomillashtirish,tinglab tushunish, o'qish, gapirish va tarjima qilish yozma nutq orqali ro'yobga chiqariladi.

Tinglovchilarga "Amaliy xorijiy til" moduli bo'yicha qo'yiladigan talablar:

– tinglovchilar ingliz tilidan olgan amaliy va nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishlari va



muntazam ravishda berilgan topshiriqlarni bajarib borish;

- notanish adabiyotdan luo‘at yordamida kerakli ma’lumotlarni bilish;
- masho‘ulotlarda qo‘llaniladigan asosiy termin va iboralarni to‘o‘ri talqin qila bilish;
- olgan bilimlariga asoslangan xolda muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirib borish;
- tilshunoslik sohasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lish.
- yil fasllari, ob-havo, uzi yashab turgan joyni, maktabi haqida gapirib ta’riflashni bilishi hamda o‘zi, oilasi, maktabi, kasbi va boshqa mavzularda berilgan savollarni tushunish va javob bera olish;
- oila, kasb-hunar, maktab, ona yurt mavzusidagi kichik matnlarni o‘qiy olish va savollarga javob bera olish;
- minnatdorchilik bildirish, kechirim so‘rash, iltimos qilish va hol-ahvol so‘rashda qo‘llaniladigan so‘z va iboralarni suhbat davomida mustaqil qo‘llay olish malakalariga ega bo‘lishi va mustaqil ijodiy foydalana olishi lozim.

Xulosa o‘rnii shuni aytish mumkinki – amaliy masho‘ulotlar hajmi 8 soat qilib belgilangan bo‘lib, masho‘ulotlarda ingliz tili oldida turgan jiddiy muammolar, ularning yechimini topish yo‘llari to‘o‘risida bat afsil ma’lumotlar berib o‘tilganligini, Davlat ta’limi to‘o‘risidagi qonun talabiga mos ravishda uzviylik to‘liq ta’minlanishini ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalkimiz bilan birga quramiz. – T.: “Uzbekistan”, 2017. – 488 b.
2. University of Cambridge “Cambridge English Language Assessment” UCLES. 2016
3. Demidova V, Khan S, Kurbanova O, English Teacher Training Course, Uzbekistan , 2011



## APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS

Sultanova Fotima Khanafiyayevna  
Mirzo Ulugbek district of Tashkent city  
241 - School English teacher  
+ 99890 964 01 51

**Abstract:** This article describes the steam approach, interactive methods that can be used in English lessons, and their importance in English.


**Keywords:** STEAM, rolling snow pile, ripe grapes, garden laundry method.

STEAM is one of the most innovative methods in the world education system today. This method allows you to conduct a mixed type of education and develop the skills to apply the acquired theoretical knowledge in everyday life. STEAM is an in-school and out-of-school project is an innovative technology that allows you to carry out educational and research activities. With this method, sciences are taught in an integrated way, not in separate networks, showing the general interdependence. In addition to showing that science is relevant to everyday life, technology can also show students' creativity. This approach presents a number of tasks to students' activities, with the student learning to be creative in solving them. With the help of such tasks, the student not only invents ideas, but also learns to implement them in everyday life. In this way, the student learns to solve their problems within the framework of the tasks set and the available opportunities. The STEAM approach is to teach how to apply the acquired knowledge in real life.

The method of "rolling snow pile"

The Snowball method is a symbolic name for the training method used to reflect on a problem. It starts with giving students time, resources, and handouts. This method involves giving each member of the group a comprehensive perspective using the knowledge and experience of the whole group. To do this, students are divided into 4 small groups. All groups are given one assignment to discuss. Each small group works on the task separately. Then the first, second, third and fourth groups discuss the problem together. Eventually, all the small groups come together to discuss different ways to solve the problem as a whole. In the course of such a discussion, students' knowledge of the problem is deepened, clarified, enriched and expanded.

Rolling snow pile technology



Technology of the game "Grapes are ripe, go to the garden".

It is better to play this game in small groups. A "Grape" model will be distributed to each group. According to the instructions on the grape leaf, the grapes are "cooked". (Students write words of interest to the grapes.) The group that completes the task correctly and quickly is the winner.



The method "EVERYONE - TEACHES EVERYONE"



This method is a teaching method that allows students to become teachers and share certain knowledge with their peers. The purpose of this method is to provide students with the maximum amount of information needed in the teaching process, while at the same time stimulating the student's interest in receiving and transmitting information. Also, the student who receives the amount of information will pass it on to as many friends as possible over a period of time.

Application:

- to arouse students' interest in receiving and giving information;
- to listen carefully and remember information;
- to listen to his partner's information and look for another partner;

Advantages:

- to express one's opinion concisely;
- develop the level of listening and memory;
- to arouse interest in science or a subject.

Students are divided into small groups. All team members will first be given a handout with the same problem and explained how to solve the problem.



References:

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modular learning technologies. - T.: Science and Technology Publishing House, 2007
2. Ishmuhamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Innovation in education technology / Practical recommendations. - T.: Talent Fund, 2008.



## PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Qurbanova Shoira Ro'zmatovna**

**Atamurotov Jamshidbek Baxtiyor o'g'li**

Teachers of English Language School № 7 of  
Bagat district, Khorezm region

**Annotation:** This article states about the pragmalinguistic peculiarities of phraseology in English and Uzbek. Here is said that there are some pragmalinguistic similarities, differences and challenges using idioms in two languages. Plenteous using and forming of idioms-the combination process is an outcome of upgrading a language and speech.

**Key words:** English language, Uzbek language, organization of word combinations, differences, similarities, interrelations, phraseological components, research, semantic order of firm unities.

Phraseology is a branch of science which belongs to phraseological units; a steady grouping words. Phraseology is a wealth of a language, which reflects the history, the background and the way of any country. Phraseology verbalize national distinct. The stock of English Phraseology is rich in national, international and obtained of terminological and non-terminological origin clause units as well as Uzbek phraseology.

While translating phraseological units into another language, we must acknowledge that it is depends on several factors: dissimilar connection of words, homonymy and synonyms, polysemy of phrases and proximity of irregular identical units, which makes it necessary to take into consideration of the context.

Besides that, there majority scientific approaches to the classifying English and Uzbek phraseological units. It has been pointed out by Koonin that classification, being for the Russian phraseology doesn't identical to specifically English features. A.V. Koonin's division is supported on the functions the units fulfill in speech:

1. Nominating
2. Interjectional
3. Communicative

Furthermore; English Phraseological units can be differentiate as parts of speech. Idioms have as basically featured; it is very complicated to find analogues in any language translation. For instance, along with solid national idioms in English and Uzbek phraseology, there are many foreign phrases that help to find out proper meaning in translation. The phraseological reservoir of any language is a complicated conglomerate of native and borrowed phrases with a clear leading of the first ones.

Some idioms retain stylistic components characteristic of prior eras, reproducing the primacy and urgency of the time. The phraseological formation of Uzbek and English languages is numerous but have similar meaning. The substantial part of it is made by elements with ethnic and thematic semantics. Here we should classify pragmalinguistic aspects of phraseological units and properties of the Uzbek and English languages considerably.

Uzbek language has advanced along history of the Republic of Uzbekistan. Along this time it combined Great number of phraseological units, which people found successful, interesting and still have used them. As a fact, there was a special section of linguistics-phraseology.

Knowledge of English phraseology makes reading both publicistic and fiction easier. The exact phraseological unit can be both composite and indicative. This event is quite typical and happens mainly by substituting the relationship of the structure in phraseologism. For example, "Ko'nglini ko'tarmoq" in English "cheer" is a phraseologism with a built-in compound, but this does not occur in English because its meaning has substituted basically. Only parts which are joined connection with utter are not part of the plan of composition of the idiom. For example, "Shumliging o'zingning boshingga yetsin" – "Let your ideas be in your head". When you say that a phrase should be referred as a sign to express idiom, stylistic expression. The category of our exposition is one of the fundamental cultural prevalents, which appears the image of each notion as a whole, and the linguistic picture of the ethnic language in peculiarity. We analyzed some of the idioms of the Uzbek and English language with the absolute meaning



"work" selected from phraseological dictionaries of Uzbek and English. Get/go/set to work(on something) –ishga kirishmoq; a bad workman quarrels with his tools-yomon kosib bigiz tanlar; out of work-ishsiz, bekorchi...

many hands make light work-ko‘pdan quyon qochib qutilmas

So we observed the main approaches and means of pragmalinguistic peculiarities of Uzbek and English phraseology. We have obtained that related problems are deliberated differently by different linguistics, different methods are found. At present, it is essential to realize the replenishment of the Uzbek and English phraseological stock, because idioms appear at great speed, which depend on the advancement of science, that is important for English and Uzbek nations.

### References

1. V.A. Kabulanskiy Concise dictionary of Modern English idioms.
2. Kunin A.V. "English phraseology."
3. Abduazizov A, Sodiqov A. Umumiy tilshunoslik.
4. www.google.com



## ALISHER NAVOIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA FRAZEOLOGIZMLARNING QO'LLANILISHI

Tamikayeva Dilafro'z Maxmudovna

SamDCHTI o'qituvchi va erkin tatqiqotchisi  
Dilafruztamikayeva84@gmail.com +998933353084

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida umumturkiy frazeologizmlarning qo'llanilishi masalalariga bag'ishlanadi. Shu asosda "Layli va Majnun" dostonida iboralarning qo'llanish xususiyatlari ma'lum darajada tahlil qilindi. Tilimizda oyoq, bosh, ko'z, qulqoq, bo'yin, kiprik, til, tomoq, qorin singari somatizmlar asosida shakllangan frazeologizmlarni umumturkiy frazeologizmlar deb hisoblab, bunday iboralarning dostonda qo'llanilishi tahlil qilindi

**Kalit so'zlar:** Bosh, oyoq, ko'z, qulqoq, bo'yin, kiprik, til, tomoq, qorin.

**Annotation:** A note This article is devoted to the use of all – Turkic phraseology in Alisher Navoi's epic "Layli and Majnun". On this basis , the features of the use of phrases in the epic "Layli and Majnun" were analyzed to some extent. Phraseologisms formed on the basis of somatisms such as legs, head, eyes, ears, neck, eyelashes,, tongue, throat, abdomen in our language are considered as all-Turkic phraseologisms, and the use of such expressions in the epic is analyzed.

**Key words:** Head, legs, eyes, ears, neck, eyelashes, tongue, throat, abdomen.

**Аннотация:** Статья посвящена использованию общетюркской фразеологии в эпосе Алишера Навои « Лейли и Меджнун». На этой основе в той или иной степени были проанализированы особенности употребления фраз в эпосе «Лейли и Меджнун ». Фразеологизмы, сформированные на основе таких соматизмов, как ноги , голова, глаза, уши, шея, ресницы, язык , горло, живот, в нашем языке рассматриваются как общетюркские фразеологизмы, и анализируется использование таких выражений в эпосе.

**Ключевые слова:** Голова, ноги, уши, шея, ресницы, язык, живот.

Ma'lumki, istiqlol qo'lga kiritilgandan keyin o'tgan davr mobaynida xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyatni va qadriyatlari tarixini chuqurroq o'rganishga qiziqish ortib , uni taro'ib-tashviq qilishga yanada jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Zero, davlatimiz va millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligidimiz uchun o'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Shu asnoda Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonini tilimizda frazeologik tomondan o'rganar ekanmiz, umumturkiy iboralarning qo'llanilishini ma'lum darajada tahlil qilishni lozim topdik.

Biz oyoq, bosh, ko'z, qulqoq, bo'yin, kiprik, til, tomoq, qorin singari somatizmlar asosida shakllangan frazeologizmlarni umumturkiy frazeologizmlar deb hisoblaymiz. Shulardan biri "ayoo' uzatmoq" iborasi bo'lib, "Layli va Majnun" dostonida "oyoqni cho'zib yashamoq, yurmoq" ma'nolarini ifodalaydi.

G'am zafarida dasht uzra yotsang,

Qum bistar ekin ayoo' uzotsang (L.M. 133 b26),

Har bargki xastavar yotti,

Yer bistarida oyoq uzatti (L.M 188 b 35).

Hozirgi paytda "oyoq uzatmoq//oyoq cho'zmoq" iborasi polisemantik ibora sifatida tilimizda faol qo'llanadi. Uning dastlabki ma'nosи "ko'ngli tinchimoq, o'am-tashvishdan holi bo'lmoq ", keyingi ko'chma ma'nosи esa "o'lmoq, jon bermoq" dir.

"Layli va Majnun" dostonida "boshiga tushmoq", "boshiga tufroq sovurmoq", "boshiga urmoq", "boshi ostonaga yetmoq", "boshi quyi bo'lmoq", "bosh tortmaslik" singari bir qancha "bosh" komponentli umumturkiy frazeologizmlar qo'llangan. Jumladan, "boshiga tushmoq" iborasi "oo'ir ahvolga tushmoq, tashvishga tushmoq" ma'nolarini beradi.

Bir kun erikib mahi muaddab,

Tushti boshio'a havoi maktab (L.M. 49 b11)

Hozirgi vaqtida "boshiga tushmoq" iborasi "hayotida kutilmagan tarzda sodir bo'lmoq" ma'nosida qo'llanadi.



“Boshiga urmoq” ummumturkiy iborasi dostonda “boshiga baxtsizlik yoo‘ilmoq” ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan:

Boshiga ki urdi zaxm gardun,

Boshi to‘kidin adadda afzun (L.M.143 b 28)

“Boshini silamoq” ummumturkiy iborasi esa “mehribonlik ko‘rsatmoq” ma’nosini bildiradi.

Boshin siladi firoqi avboshi ,

Kim yoo‘dirgum bu bosh uza tosh (L.M. 60 b10)

“Boshiga tufroq sovurmoq” iborasi ham ummumturkiy bo‘lib, “boshiga o‘am-alam yukini sochmoq, qiyamoq, azob bermoq” ma’nolarini bildiradi.

Boshio‘a sovurdi oncha tufroq ,

Go‘yo yiqildi bu ko‘han toq (L.M. 178 b33)

“Quloq” so‘zi ummumturkiy bo‘lib, “eshitish organi va uning tashqi qismi” degan ma’noni bildiradi. Tilimizda ana shu somatizm so‘z yordamida “quloq bermoq”, “quloqdan qolmoq”, “quloo‘iga quymoq”, “quloo‘I ding bo‘lmoq”, “quloo‘ini pishirmoq”, “quloo‘i ding bo‘ldi ”,”quloq miyasini yemoq”, “quloq solmoq”, “quloo‘idan kun ko‘rinadi” singari juda ko‘plab ummumturkiy frazeologizmlar shakllangan. “Layli va Majnun ” dostonida xuddi ana shunday ummumturkiy iboralardan “quloqqa olmoq” va “quloo‘iga yetmoq” iboralari “eshitmoq, xabardor bo‘lmoq, xabar topmoq” ma’nolarini bildiradi.

Bu bir necha so‘z quloqqa olo‘il,

Balkim necha dur quloqqa solo‘il (L.M. 204 b37)

Kim yeti quloo‘iga xurushe

Aytur edi bu xabar surushe (L.M. 195 b350

“Quloqqa olmoq” ummumturkiy iborasi esa xuddi hozirgi vaqtida bo‘lgani singari dostonda ham “tinglamoq , aytganini qilmoq” ma’nolarini ifodalaydi:

Bu bir necha so‘z quloqqa olo‘il,

Balkim necha dur quloqqa solo‘il (L.M. 204 b37)

Tilimizda “ko‘z” somatizmi asosida yuzdan ortiq ummumturkiy iboralar shakllangan. Bu haqda

A. Isayev, keyinchalik A. Mamatov singari frazeolog olimlar maxsus kuzatishlar olib borganlar . Jumladan , A. Isayevning kuzatishlariga qaraganda , tilimizdagи “ko‘zga ko‘rinmoq” , “bo‘yniga olmoq”, “tilini tiymoq”, “ko‘zi och bo‘lmoq” singari frazeologizmlar qadimgi turkiy tilda ham faol qo‘llangan. Qadimgi turkiy tilda 249 ta iboradan hozirgi kunga kelib u yoki bu o‘zgarishlar bilan 54 tasi saqlanib qolgan, boshqalari esa asta-sekinlik bilan iste’moldan chiqib ketgan .Bunday holatni Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni tilida ham kuzatimiz . Masalan, “ko‘z oldiga keltirmoq”, “xayol qilmoq” ma’nolarini ifodalash uchun asarda “ko‘zga eturmoq” iborasi qo‘llangan.

Hozirgi kunda esa bu ibora tilimizda arxaiklashgan:

Tasvir etib yuzi xayolin,

Ko‘zga eturub qadi misolin (L.M. 102 b21)

Dostonda “ko‘ziga uyqu solmoq” uch komponentli iborasi “yutuqlardan esankiramoq, o‘zidan ketmoq, ko‘zini o‘aflat uyqusi bosmoq” ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan:

Bedilni yengib edi bu qayo‘u ,

Kim baxt ko‘ziga soldi uyqu (L.M. 115 b23)

“Ko‘ngil” so‘zi ummumturkiy bo‘lib,”kishining his-tuyo‘u kechinmalari manbai, yurak, qalb, dil” ma’nolariga ega. Bu so‘z Alisher Navoiy davrida ham juda faol qo‘llanishda bo‘lgan. Masalan, “ko‘nglini olmoq ” iborasi “o‘ziga yaqin olmoq” ma’nosini bildiradi.

Key jonima hayrat o‘ti solo‘on,

Ko‘nglumni burun nazarda olo‘an (L.M. 57 b12)

“Ko‘nglini ovutmoq” ummumturkiy iborasi esa “ko‘ngliga taskin bermoq, tinchlantirmoq” ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan:

Ul kom ila ko‘nglini ovutma,

Bu ravza sori ani yovutma (L.M. 211 b38)

“Ko‘ngul oo‘ritmoq” ummumturkiy iborasi “Layli va Majnun” dostonida “alam chekmoq, qayo‘uga tushmoq” ma’nolarini bildiradi:

... aning ko‘ngli jarohatlarin muning ham ko‘ngli oo‘ritqani va aning talh komin achitqani (L.M. 81 b 9)

Shunday qilib, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida oyoq, bosh, quloq, ko‘z,



ko‘ngul kabi kishi a’zolarining nomlari-somatizmalar asosida shakllangan iboralarni ma’lum darajada tahlil qildik. Umuman olganda, tilshunoslik fani oldidagi dolzarb masalalardan biri frazeologizmlar hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. “Layli va Majnun” dostoni - Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.-344 b.
2. Mamatov. A. Frazeologizmlar shakllanishining nazariy asoslari. Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 1997
3. Isayev. A Drevneturkskiye somaticheskiye frazeologizmi. Trudi SamGU, novaya seriya N. 277. Voprosifrazeologii. UP.-Samarkand. 1976



## SAMARQAND SHAHRI SHEVALARIDA BOLA TILIGA OID SO‘ZLAR XUSUSIDA

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna  
SamDCHTI tadqiqotchisi  
Telefon: +998(97) 9169261  
tillabayeva87@bk.ru

**Annotatsiya:** Maqlada Samarqand shahri shevalaridagi bola tiliga oid leksemalar va ularning ma’nolari leksik guruhlarga bo‘lib tahlil qilingan, erkalama xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** sheva, leksema, leksik guruh, erkalama.

Ma’lumki, barcha o‘zbek shevalari qatori Samarqand shevasi ham o‘ziga xos rang-baranglikka ega. Uni qanchalik ko‘p o‘rganishishingiz, xalq tiliga chuqurroq kirib borganingiz sari bunga yanada ko‘proq qiziqishining ortib boradi. Yosh bolalar nutqini o‘rganish murakkab jarayon sanaladi. Ularning nutqini suhbatlashish, fikrlashga undash, tafakkurini o‘stirish ehtiyoji orqali o‘stirish mumkin. Bu jarayonning muhim jihat shundaki, bolalar talaffuzi hamda axborot olish va o‘rgatishdan iborat. Ota-onalar uchun ham bola bilan tez muloqotga kirishish, biror yumushni bajartirish jarayonida bevosita varvarizmlarga duch kelinadi. Biz ushbu ishimizda Samaraqand shahri shevasida ko‘p va faol uchraydiganlaridan ba’zi so‘zlarni imkon darajada tahlil qilishga harakat qilamiz. Yio‘ilgan materiallar tahlili ularni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkinligini ko‘rsatdi:

1. Oziq-ovqat nomlarini ifodalovchi leksemalar: nana-(non), asha (ovqat), buva (suv), ququ, dunduq (tuxum), kaka (biror bir shirinlik turi).
2. Hayvon va qushlar nomi bilan boo‘liq leksemalar: baba (kuchuk, biror bir kattaroq hayvon yoki biror bir maxluq), titi, kuku (qush), mo‘(sigir), be (qo‘y), pishi (mushuk).
3. Ish-harakatni anglatuvchi leksemalar: mama, mamam, mamoq beraymi? (emasanmi?), nyam nyam qil-(ye), happy qil (yut), aa qilasanmi? (katta hojat qilasanmi?), ufa bo‘ldimi? (oo‘ridimi?), atata (urmoq), bay-bay (xayrlashmoq), alla qil , uxxapish yoki uxxa qil (uxla), uppa qilaymi, upala qilaymi yoki obbo qilaymi? (ko‘taraymi?), uchaga yoki uttaga boramizmi? (ko‘chaga aylangani chiqamizmi?), hi-hi qilma (yio‘lama), paq bo‘ldi (buzildi yoki sindi), paq bo‘lasan (yiqilasan), ava qil (o‘p), chum-chum qilasanmi?(cho‘milasanmi?), chalap-chalap (cho‘milish), uppa (bolani dast ko‘tarib, katta bo‘lsin qilish).
4. Kiyim-kechak nomini bildiruvchi leksemalar: lolo (kiyim), patik, patish, patin (oyoq kiyim), papoq (bosh kiyim).
5. Biror ish-harakatni qilishga undovchi leksemalar: chish (kichik hojat, ya’ni to‘sish), chuuush yoxud chiiish (bolani to‘sanda aytildi), totoy-totoy yoki totoy tata (endi atak-chechak qilib yurmoqchi bo‘lgan bolani yurgizish uchun aytildigan so‘z), lalay-lalay (raqsga tushirish uchun qo‘llanadi), lalay tani, top ( musiqa ovozi chiqadigan radio yoki telefon qani, izla), adi (bolani ovuntirish, kuldirish uchun katta odam yuzini kafti bilan berkitib, keyin ochganda qo‘llaydigan so‘z), chapak-chapak (bolani qarsak chalishga undashda aytildi), sarak-sarak (boshini qimirlatishi uchun ishlataladi), to‘nqur-to‘nqur (go‘dakni o‘tirgan holda tanasini oldinga, orqaga, o‘ngga, chapga bir maromda harakat qildirish uchun qo‘llanadi), dikiri nonoy dikiri (2-3 oylik bolaning qo‘ltio‘idan ushlab, oyoo‘ni yerga bosishi uchun aytildigan so‘z), huuu ale, huppale (go‘dakni chalqancha yotqizib, qo‘lchalari yetmaydigan darajadagi uzoqlikda o‘yinchoqni qo‘yib, ikkita oyoqchalarining tovonidan itarib, emaklashga o‘rgatishda aytildi), usul, usul, usuli (bolani raqsga tushishga o‘rgatish uchun aytildi), no,no,no (biror ishni qilishdan qaytarishda), tshshsh (jim o‘tirishga undashda), achosh-achosh (bolaning quchoqlashga undash uchun aytildi).
6. Belgi bildiruvchi leksemalar: jiz (kuydiradigan darajadagi issiqlik), qix (yomon) , aposh, babay (yaxshi), uvv (sovuuq), kixa, ax (kir, iflos narsa), hoy-hoy (yangi).
7. Narsa-buyum nomi bilan boo‘liq leksemalar: jizza (ukol), shaqshaq (shaqildoq), bibib yo‘gi ng (avtomobil), alyo-alyo (telefon), nanay-nanay (kuy, musiqa), chichi (qo‘l), tata (beshik), didid (avtomobil), loy-loy (olov).
8. Shaxs tushunchasi bilan boo‘liq leksemalar: nini (chaqaloq), ana (buvi).
- O. Safarovning kitobida “Ha, do‘rsa, do‘rsa, do‘rsa” ko‘rinishidagi taqlidiy so‘zlarga asoslangan erkalama turlari borligi qayd etilgan. Mazkur erkalamaning esa Samarqand shahri shevalarida quyidagi namunasi keng tarqalganligi ma’lum bo‘ldi:



Ha do'rsi, do'rsi, do'rsiya,

Dadasi bozorga borsa.

Go'shti biqin keltursa,

Sho'rbo qilib ichursa.

Bundan ko'rinish turibdiki, bu yo'nalishdagi erkalamaning samarqandcha variantida "do'rsa" so'zi "do'rsi" ko'rinishida aytildi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, adabiy tildan farqli o'laroq shevaga oid so'zlarning ma'nosi juda keng va turli-tuman. Bunday talaffuzi oson va o'ziga xos bolalar nutqiga oid so'zlarni toplash va tahlil qilish, ovunchoqlar, erkalamalar, allalar matning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Go'daklarning so'z boyligini yanada boyitish hamda nutqini rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish hamda keng tadqiq qilish tilshunosligimiz oldidagi muhim va dolzarb masalardan biri hisoblanadi.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. Toshkent: O'qituvchi, 1985



## BADIY MATN TUZISHDA METAFORADAN FOYDALANISH

Zakirova Gulchexraxon Abdusattarovna  
Andijon viloyati Andijon tumani  
36-son umumta'lim maktab ona tili va  
adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqlolada metafora haqida, badiy matn tuzishda metaforadan foydalanish haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** matn, metafora, obraz, konnotativ ma'no, ko'chma ma'no.

Metafora narsa-buyum, voqe-a-hodisalar, belgilar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi, ya'ni metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. U mumtoz adabiyotshunosligimizda - "istiora" deb ham yuritiladi.

Matnga lingvopoetik yondashuvda lisoniy va xususiy-muallif metaforalarini farqlash maqsadga muvofiq. Lisoniy metaforalar til taraqqiyoti bilan boo'liq hodisa hisoblanadi, ular tilda vizuallik kasb etib bo'lgan. Shuning uchun ham tadqiqotchilar to'o'ri ta'kidlaganlaridek, - bunday metaforalar, asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqtgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarini atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning oyoo'i - stolning oyoo'i, odamning ko'zi -uzukning ko'zi, ko'yakning etagi - too'ning etagi* kabi. Demak, lisoniy metaforalar lingvopoetik nuqtayi nazardan jiddiy qimmatga ega emas. Xususiy-muallif metaforalari esa yangi va okkazional, kutilmagan bo'ladi. Ularni yozuvchining o'zi estetik maqsad, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini ham qo'shib obrazli ifodalab nomlash asosida yaratadi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdirlikka va vogelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiy matnda qahramonning his-tuyo'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bunday metaforalar badiy matnning lingvopoetik tahlilida favqulotda muhim o'rinn tutadi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no aniq holda ifodalanadi.

Ayrim tadqiqotchilar *ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldiro'och, bulbul* kabi so'zlar ko'chma ma'nolarda keng qo'llanishini aytib, shunday mulohaza bildiradilar: Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo'yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkinning ayyorligi, burgutning changallahdashdagi kuchliligi, lochinning ko'zi o'tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi, natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi. To'o'ri, bunday metaforalar asosidagi ko'chma ma'nolar, albatta, konnotativ ma'noga ega, shuning uchun matnning ta'sirchanligiga yordam beradi. Lekin ular an'anaviy metaforalardir, xususiy-muallif metaforalari emas, ya'ni ko'p qo'llangan va yangi emas. Shunga ko'ra ularning badiy matndagi lingvopoetik salmoq darajasi xususiy-muallif metaforalariga qaraganda ancha pastdir. Masalan, *buqalamun* so'zining metaforik ko'chma ma'nosini - "o'zgaruvchan odam" demakdir, bu ma'no luo'atlarda ham qayd etilgan. Ayni ma'no tarkibida konnotativlik bor, shuning uchun *buqalamun bilan uchrashuv* (S.Ahmad.) birikmasidagi ifoda ta'sirli. Lekin bu ma'noning yuzaga kelishi yozuvchiga boo'liq emas, u oldindan ma'lum.

Yangi, kutilmagan, ijodkorning o'ziga xos metaforalar badiy matnda kuchli darajada poetik ta'kidga ega bo'ladi. Aytaylik, yozuvchi tomonidan yaratilgan *kelinlar qo'zgoloni* (S.Ahmad) birikmasidagi *qo'zo'lon* so'zida yuzaga kelgan metaforaning poetik kuchi oldingidan ortiq. Shuning uchun ham aynan xususiy-muallif metaforalarining poetik salmoo'i jiddiyidir.

Tilshunoslikda metafora haqida ko'plab ilmiy asarlar yaratilgan. Ularning aksariyatida metaforaning asosiy mohiyatini o'xshatish, qiyoslashdan iborat mantiqiy amal tashkil etishi aytilgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh.Rahmatullayev O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari.
2. A.Rasulov Badiy asarga yondashuv asoslari.
3. B.To'xliyev va boshq. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari.



## АЛИШЕР НАВОЙЙНИНГ "ТАРИХИ АНБИЁ ВА ҲУКАМО" АСАРИ ҚУРЪОНӢИ ҚИССАЛАР МАНБАИ СИФАТИДА

**Абдураҳмонов Абдураҳмон**

